



UDC: 81`373.2:881.792.243(799)

Mohitobon NOROVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: mohitobon566@gmail.com

Buxoro davlat universiteti dotsenti, f.f.f.d D.Xodjayeva taqrizi asosida

THE ROLE OF ARCHAISMS AND HISTORIZMS IN THE FRENCH LANGUAGE.

Annotation

In this article, the names of things and events fall out of use and fall out of the dictionary were analytically presented on the example. Words can leave the lexical layer over time. All obsolete words that fall out of use are usually divided into two types: archaisms and historicisms. This phenomenon occurs due to various reasons for evolutionary changes in vocabulary. The word itself may go out of use, "become obsolete," that is, lose its original meaning, or be used by another synonymous word.

Key words: Archaism, historicism, lexical layer, lexical unit, historicism-lexeme, historicism-seme.

РОЛЬ АРХАИЗМОВ И ИСТОРИЗМОВ ВО ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ.

Аннотация

В данной статье на примере аналитически представлены названия вещей и событий, выходящих из употребления и выпадающих из словаря. Слова могут покидать лексический слой с течением времени. Все устаревшие слова, которые выходят из употребления, принято делить на два типа: архаизмы и историзмы. Это явление происходит по разным причинам эволюционных изменений в лексике. Само слово может выйти из употребления, «устареть», то есть потерять свое первоначальное значение, или быть использовано другим синонимичным словом.

Ключевые слова: Архаизм, историзм, лексический пласт, лексическая единица, историзм-лексема, историзм-семена.

FRANSUZ TILIDA ARXAIZM VA ISTORIZMLARNING O'RNI

Annotatsiya

So'zlar vaqt o'tishi bilan leksik qatlamdan chiqib ketishi mumkin. Bunda narsa va hodisalarning nomi foydalanishdan chiqib ketadi va lug'atdan tushib qoladi. Foydalanishdan chiqib ketayotgan barcha eskirgan so'zlar odatda ikki turga ajratiladi: arxaizmlar va istorizmlar. Bunday hodisa lug'at boyligidagi evolyutsion o'zgarishlarning turli sabablari bilan sodir bo'ladi. So'z o'z-o'zidan kundalik foydalanishdan tushib, "eskirgan" bo'lib qolishi, ya'ni o'zi anglatgan tushunchani yo'qotishi yoki boshqa bir sinonim so'z bilan ishlatilishi mumkin.

Kalit so'zlar: Arxaizm, istorizm, leksik qatlam, lug'aviy birlik, istorizm-leksema, istorizm-sema, eskirgan lug'at.

Kirish. «Arxaizm» atamasi birinchi marta frantsuz tilida 1659 yilda Kapellan maktubida uchraydi[4]. Rasmiy va semantik jihatdan bu yunon tilidan olingan bo'lib, (yunoncha ἀρχαῖος - "qadimgi"). Ispan shoirlari ijodini o'rganar ekan, Cheplen «arxaizm» atamasiga asos soldi.

Semantik maydonining yo'qolganiga qaramay, arxaizmlar o'zining asl, tub ma'nosini yo'qotmaydi:

- 1) iste'moldan chiqqan eskirgan so'z yoki ibora;
- 2) eskirganlik bo'yog'iga ega voqea-hodisa.

Bu ta'rif Robert tomonidan berilgan, Grevis esa arxaizmlarni grammatik va leksik turlarga bo'ladi. Arxaizm nafaqat eskirgan so'z, balki tilning uslubi, holati hisoblanadi. "Littre" ning so'zboshida arxaizmlar – bu tarixning har bir bosqichini o'ziga mujassamlashtirgan til qatlamidir. "Har bir til o'zining 3 tarkibiy bosqichiga ega: zamonaviy qo'llanish,...bir muddat avval zamonaviy bo'lgan, lekin hozirda arxaizmlar qatoridagi so'zlar; va... neologizmlar»[3].

Ammo bu ta'rif biroq eskirgandek, "arxaizm" ritorika lug'atidan lingvistik lug'atga kirib kelgan tilshunoslikning zamonaviy atamalaridan biridir[5]. Marusoning lingvistik terminologiya lug'ati"da shunday ta'riflanadi: "Arxaizm: foydalanilgan davrga mansub til shakli, qurilishi, xarakterformasi hisoblanadi." Bunda tildagi so'zlar bir davrdan boshqasiga o'tib, ularni bir-biriga taqqoslashni o'z ichiga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma'lumki, arxaizm tilning tarixiy xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Ular tilda mavjud, uning ketma-ketligini o'z ichiga oladi. Shunday qilib,

"arxaizm" atamasini yaratgan yunon nazariyotchilari tilning o'tmishi qisman uning hozirgi holatida mavjud maxsus stilistik pozitsiyani belgilashni maqsad qilishgan.

Arxaizmlar so'zning barcha ma'nolari o'rtasidagi qarama-qarshilik va kontrastni bildiradi. Ya'ni, so'zning eskirishi va qayta shakllanishi kabi tushunchalarni bildiradi.

1) so'zning eskirishi. So'zlar va kam hollarda grammatik shakllar kundalik foydalanishdan chiqib ketadi va boshqa muqobili bilan almashtiriladi. Bu jarayon uzluksiz davom etadi. Bunda shakl yoki so'z:

- a) foydalanishdan chiqib ketish;
- b) eskirgan deb hisoblanadi.

Frantsuz yozuvchisi Joachim Du Bellay frantsuz tili lug'at boyligini yaratish va uni turli yo'llar bilan boyitishni taklif qildi:

1) neologizmlarni yaratish, ya'ni affiksatsiya, birikma va boshqa so'z yaratish usullari orqali frantsuz tilining o'zi manbalaridan yangi so'zlarni yaratish;

2) so'zlarni klassik tillardan, lotin va yunon tillaridan ham, zamonaviy tillardan ham olish;

3) turli dialektlardan va shevalardan foydalanish;

4) arxaizmlardan, ya'ni bu davrda eskirgan va unutilgan so'zlardan foydalanish.

Bundan tashqari, frantsuz yozuvchisi François Rabelais san'at va fan terminologiyasidan foydalanadi.

Shuningdek, Fransiyaning turli mintaqalaridan dialektizmlarni taqdim etadi, qadimgi frantsuz tili adabiyotidan olingan arxaizmlardan juda keng foydalanadi;

masalan: bailer (= danser), mire (= t edecin), andre (= bruler), remembrer (- se souvenir) va boshqalar.

Rabelais ayniqsa lotin va yunon tillaridan olingan so'zlariga murojaat qiladi, masalan: apologe, catastrophe, sympathie, parasite va boshqalar.

Bu davrda fransuz adabiy tilning lug'at tarkibi juda boyib ketdi[6].

Fransuz shoiri François de Malherbe o'zining asosiy e'tiborini leksikologik ishlarga qaratdi. U yangilarini yaratishga qarshi edi so'zlar, bu tushuncha buzilganligi sababli, u arxaizmlar, dialektizmlar va ilmiy atamalardan foydalanishni ham rad etdi. She'riyat tiliga o'z talablarini qo'ygan Malherbe "iflos" deb hisoblagan va "yuqori she'riyat"da (dans la haute poesie) bo'lishga noloyiq deb hisoblagan ko'plab oddiy so'zlarni, masalan, estomac, poitrine, cadavre kabi so'zlarni she'riyatdan haydab chiqardi. va boshqalar.

Malherbening grammatik nazariyalariga kelsak, uning taablablari she'riy til(nazm)dan tashqari butun adabiy tilga taalluqli edi[6].

Tadqiqot metodologiyasi. So'z va tushuncha asta-sekin evolyutsiyaning bir necha bosqichlarida foydalanishdan chiqib, eskirgan hisoblanadi. Shunday qilib, bu jarayonning sabablari noma'lumligicha qolmoqda[3]. Agar nutqda eskirgan va foydalanishdan yo'qolgan so'z, narsa, voqea, hodisalarni qayta ko'rib chiqmasak, biz istisnoga duch kelamiz. Masalan, bir muncha vaqt avval goupil so'zi renard so'zi o'rnida qo'llanilgan. Renard so'zi birinchi marta qachon "ot" so'z turkumi sifatida ishlatilganligini, goupil oxirgi marta qachon ishlatilgan. Odatda, bu ikki sana bir-biriga to'g'ri kelmaydi, bu ikkala so'z anglatgan tushuncha bilan bog'liq. Zumor o'zining maqolasida ayniqsa, so'zning arxaizatsiya jarayonini tushuntirishning ma'lum aniq ko'rsatkichlari mavjud emas. So'z yoki tushuncha qo'llanishda ma'lum qiyinchilikka duch keladi va nutqda bu so'zlardan foydalanilmaydi.

Fransuz va o'zbek tillarida arxaizm va eskirgan so'zlarning tahlili:

Fransuz tilida	O'zbek tilida
Arxaizm bu – ma'lum bir davrda foydalanilgan til, konstruktsiya(tuzilish) va shakl(forma)ni o'zida mujassamlashtirgan so'z.	Arxaizm bu - jonli so'zlashuv tilida ishlatilmaydigan yoki juda kam qo'llaniladigan eskirgan so'z va iboralar hisoblanadi.
Arxaizmlar tilning tarixiy xususiyatlari bilan bog'liq.	Arxaizmlar ayrim hollarda asardagi ba'zi shaxslarni kulgili, kinoyalari tarzda ko'rsatishga ham xizmat qiladi.
Arxaik so'zlarning tilning o'tmishdagi holatini hozirgi davrda qisman va vaqtincha qayta tiklanadigan muayyan stilistik vaziyatni anglatishi uchun foydalaniladi.	Arxaizmlar anglatgan ma'no tarixiy so'zlar o'xshab tildan va hayotdan chiqib ketmaydi, balki ular anglatayotgan narsa va hodisalar hayotda saqlanib, dastlabki nomi yangi nom bilan almashadi.
Arxaizmlar har doim bir-biri bilan ketma ket keladigan ikki holat o'rtasidagi contrast (bir-biridan keskin farq qiluvchi jihatlarini) ko'rsatadi	Arxaizmlar poetik nutqqa alohida tantanavorlik va ulug'vorlik baxsh etadi.
Badiiy adabiyotda arxaizmlar odatda murakkab uslublarda qo'llaniladi.	Adabiy va tarixiy asarlarda arxaizmlar ko'proq tasvirlanayotgan davr ruhini aks ettirishga xizmat qiladi.
Ma'no jihatlariga ega arxaizmlar tilshunoslikda 5 ta guruhga bo'linadi: leksik arxaizmlar, talaffuzdagi arxaizmlar, grammatik arxaizmlar, grafik arxaizmlar, sintaktik arxaizmlar.	Ishlatilishdan chiqib ketgan yoki chiqib ketayotgan so'zlarni tilshunoslik fanida tarixiy so'zlar va arxaizmlarga ajratiladi.
Eskirgan so'zlar asosiy bir vaqtning o'zida ikki xil tushunchani anglatadi: o'tmishdagi holatni tasvirlash orqali eskilik bo'yog'ini berish va uni qayta tiklash.	Eskirgan so'zlar, o'tmishga, tarixga xos bo'lgan narsa, hodisa, tushunchalarni anglatib, tarixiy matnlarda ishlatiladi. Zamonaviy tilda ularning o'zini bosadigan sinonim so'zlar ham, ularga ehtiyoj ham yo'q.
Eskirgan so'zlarda rangdorlik va ulug'vorlik bo'yog'i mavjud, ular tildan va hayotdan chiqib ketmagan, balki eskirgan hisoblanadi.	Istorizm inson, tarix, davrga xos muhim xususiyatni topib tasvirlashdir.
Arxaizm atamasi eski konnatativ ma'noli so'zlar va tushunchasi eskirgan so'zlarning qayta jonlanishiga nisbatan ham qo'llaniladi.	O'tmish voqeligini nomlash zaruriyati bilan hozir ishlatilgan eski lug'aviy birlik istorizm deyiladi (yunoncha historia — «tekshirish», «tadqiqot»).

Tahlil va natijalar. Ridicule, jadis, se remémorer kabi so'zlar 17-asrning ko'plab olimlari tomonidan eskirgan deb hisoblangan, ammo bu so'zlar hanuzgacha o'z ma'nosini saqlab qolgan va foydalanishdan chiqib ketgan emas.

Monopole, succès, réussir faqat bitta ma'noda eskirgan, ammo baribir boshqa ma'nolarida ishlatiladi. Cité faqat yuqori yoki shaharning markaziy qismi ma'nosida eskirgan.

"Malice" so'zi "yomonlik" ma'nosida faqat adabiy uslubda sxolastik yo'nalishda saqlanib qolgan, lekin, bunday stilistik uslubiy umumiy lug'atga kirdi: ardu, banquet, madré, ranceour.

Shunday qilib, qaysi so'z vaqt o'tgandan keyin foydalanishdan yo'qolsa, u har qanday adabiy matndagi davrga tegishli bo'lishi mumkin hamda ularni olinma so'z sifatida qabul qilamiz.

Qayta tiklash natijasida iste'moldan chiqib ketgan so'zlar tilda yana paydo bo'ladi. Brunoning ro'yxatida quyidagi misollarni topish mumkin angoisse, adolescent, déloyauté, désastre, défaveur, effigie, malencontreux bular va boshqa so'zlar allaqachon qo'llanishdan yo'qolgan, lekin yana til lug'atiga kirdi. Shubhasiz, bu so'zlarning hech biri arxaizm hisoblanmaydi, lekin, ular doimiy iste'molga kirgan davrda arxaizmlar hisoblangan.

Shunday qilib, Balli arxaizmi "O'lik tilning vaqtinchalik qayta tiklanishi" deb ta'riflagan[1]. Ko'pincha,

arxaizmlar sivilizatsiya, madaniyat yoki jamiyatning rivojlanish davriga tegishli bo'ladi.

Zumor buni "texnik arxaizmlar" atamasi bilan tushuntirib, arxaizmlar faqat tarixning o'sha ular tegishli bo'lgan davriga nisbatan qimmatlidir deb hisoblaydi. Masalan: troubadour, haubert, parentèle so'zlari ilmiy maqola yoki tarixiy romanlarda har xil qiymatga ega. Avvalambor, biz semantik anqlik va hozirgi zamon voqeliklarni yetkazishga xizmat qiluvchi "texnik arxaizm"larini o'rganib chiqamiz. Bu arxaizmlardan badiiy tasvir va ifoda vositasi sifatida foydalaniladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, arxaizmlar o'tmishdan hikoya qiluvchi tarixiy asarlarda, badiiy adabiyotda davr lazzati, ishonchlilik, tarixiylik, o'tmish xususiyatlarini tavsiflash va qayta jonlantirishda keng qo'llaniladi. So'nggi o'n yilliklarda fransuz leksikasida so'zning jadal yangilanishi sodir bo'ldi. Bunga sabab tarixiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar, 60-yillardagi inqilob, ilmiy va texnik o'zgarishlar, shuningdek jamiyatdagi zamonaviy so'nggi yutuqlar, mobil telefon va Internet, globallashuv jarayonlari va uning ommaviy axborot vositalariga ta'siridir. Arxaizmlar va zamonaviy til xususiyatlari tobora uyg'unlashib bormoqda. Biroq, fransuz arxaik lug'atining o'ziga xos xususiyati va uni o'rganishga bo'lgan qiziqish tilshunos olimlar oldida yangi va muhim vazifalarni bergilab beradi.

ADABIYOTLAR

1. Балли, Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка / Ш.Балли. –М.: Изд-во иностр. литературы, 1965. – 416 с.
2. Brunot, F. Histoire de la langue française / F.Brunot. – Paris, 1934. – 745 p.
3. Marouzeau, J. Precis de stylistique/ J. Marouzeau. – Paris, 1959. – 586 p.

4. Zumthor, P. Introduction aux problemes de l'archaisme / P. Zumthor// Cahiers de l'Association internationale des etudes francaises. – Paris, 1967. – p.11–26.
5. Zumthor, P. Langue et techniques poetiques à l'epoque romane/P. Zumthor. –Paris, 1963. – 412 p.
6. Кира Александровна Аллендорф. Очерк истории французского языка. пособие для преподавателей. Москва : Учитель, 1959
7. Ахманова О. Словарь лингвистических терминов. М., 1966. С. 56.
8. Шанский Н. Современный русский язык. М., 1987. С. 57–58.
9. Михайлова Е. Архаизация элементов языка в процессе его развития (на материале русского литературного языка XVIII в.): автореф. дис. ... канд. филол.наук. Киев, 1987.
10. Клоков В. Французский язык в Северной Америке. Саратов, 2005. С. 329 – 330.
11. Forest J. Le grand glossaire des archaïsmes, des régionalismes et des populismes venus de France. Montréal, 2013. P. 10.